**Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida, aniq va to‘laqonli amalga oshirilishini tashkil etish to‘g‘risida**

**MA’LUMOT**

Toshkent viloyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida va to‘liq ijrosini ta’minlash yuzasidan ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi 117-sonli va 2021-yil 10-fevraldagi 6166-sonli farmonlari, 2021-yil 31-maydagi 5132-sonli qarorida** belgilangan topshiriqlar asosida viloyat hokimligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlari o‘z vaqtida ijroga qaratilib, to‘liq va sifatli bajarilishi qat’iy nazoratga olingan.

Tahlillarga ko‘ra, viloyat hokimligiga 2025 yilning 30-sentabrga qadar “**Ijro.gov.uz**” tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **1 671 ta** *(**279 ta** Farmon, **915 ta** qaror, **36 ta** farmoyish, **441 ta** majlis va tashrif bayonlari) va* **2 ta** Qonunda **15 442 ta** topshiriqlar kelib tushgan.

Ushbu topshiriqlarni ijrosini o‘z vaqtida sifatli ta’minlash maqsadida har bitta hujjat bo‘yicha nazorat rejalari ishlab chiqilib, taalluqli boshqarma, tashkilotlarga hamda shahar, tuman hokimliklariga ijro uchun yuborilgan. Bugungi kunda ushbu topshiriqlarning **12 807 tasi** bajarilgan, **2 635 ta** topshiriqlarni belgilangan muddatlarda ijrosini ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Shu jumladan, joriy yilning sentabr oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlaridagi topshiriqlarida viloyat hokimligi mas’ul bo‘lgan **204 ta** topshiriqlari bajarilishi belgilangan bo‘lib, mazkur topshiriqlarning belgilangan muddatlarda va sifatli ta’minlash bo‘yicha barcha zaruriy choralari ko‘rib borilmoqda.

Viloyat hokimligida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijrosini **“kunbay” va “soatbay”** tahlil qilib borish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Haftaning har dushanba kuni viloyat hokimi rahbarligida, haftaning juma kunlari hokimning birinchi o‘rinbosari huzurida ijro intizomi holati tanqidiy muhokama qilib kelinmoqda.

Topshiriqlar o‘z muddatlarida bajarilishini ta’minlash maqsadida har oyning **25-sanasida** kelgusi oyda ijrosi belgilangan topshiriqlar ro‘yxati shakllantirilib,

mas'ul viloyat hokimining o'rinbosarlari, guruh va bo'lim boshliqlariga, taalluqli boshqarma, tashkilotlar hamda shahar, tuman hokimliklariga yuborilmoqda.

Shundan kelib chiqib, mas'ul ijrochilar kesimida **"Taqvim reja"** va **"yo'l xaritalari"** tasdiqlanib, shu asosida ish tashkil etilmoqda. Tahlillar natijalari bo'yicha, ijro intizomini ta'minlashda yo'l qo'yilgan tizimli kamchiliklar, ularning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda. O'z navbatida, viloyat boshqarma va tashkilotlar hamda shahar, tumanlar hokimliklarida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosi bo'yicha tasdiqlangan jadval asosida maqsadli va kompleks o'rganishlar o'tkazilmoqda.

Viloyat hokimligida **"Ijro.gov.uz"** elektron tizimi orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatning Farmon, qaror, farmoyish hamda majlis bayonlarida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida to'lik va sifatli bajarilishini ta'minlashga qaratilgan aniq vazifalar belgilanib, topshiriqlar ijrosini ta'minlash choralari doimiy nazoratga olinadi.

**F.Raxmatullayev** – Toshkent viloyati hokimligi
Ijro intizomi nazorati bo'limi boshlig'i

## Toshkent viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

| | O'lchov birligi | 2010 y. | 2011 y. | 2012 y. | 2013 y. | 2014 y. | 2015 y. | 2016 y. | 2017 y. | 2018 y. | 2019 y. | 2020 y. | 2021 y. | 2022 y. | 2023- y. | 2024- y. | 2025- yil yanvar-sentabr* |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yalpi hududiy mahsulot | **mlrd.so`m** | **7 631,1** | **10 200,6** | **12 782,3** | **15 420,7** | **18 729,0** | **22 089,0** | **23 876,1** | **31 952,3** | **44 280,2** | **60 995,4** | **70 691,6** | **91 317,3** | **103 244,8** | **121 442,6** | **146 385,2** | **126 761,2** |
| | o'sish sur'ati, % da | 108,8 | 105,5 | 104,5 | 106,5 | 106,2 | 105,9 | 104,7 | 101,0 | 106,8 | 108,4 | 102,2 | 111,0 | 106,1 | 106,0 | **106,7** | 107,3 |
| Sanoat mahsuloti | **mlrd.so`m** | **5 471,2** | **7 286,5** | **8 112,1** | **10 418,3** | **12 474,6** | **14 401,0** | **16 864,8** | **21 693,4** | **37 724,4** | **53 484,8** | **64 765,3** | **83 433,9** | **93 935,1** | **106 915,3** | **138 555,4** | **118 627,9** |
| | o'sish sur'ati, % da | 108,0 | 103,9 | 105,2 | 112,1 | 106,4 | 108,1 | 105,6 | 102,7 | 114,8 | 107,3 | 103,8 | 112,8 | 105,7 | 105,4 | 106,4 | 106,0 |
| Iste'mol tovarlari | **mlrd.so`m** | **1 335,3** | **2 363,0** | **2 177,1** | **3 053,3** | **3 811,0** | **4 970,1** | **6 250,0** | **5 785,5** | **7 700,9** | **10 859,0** | **13 153,1** | **19 981,5** | **18 290,8** | **22 401,4** | **x** | **x** |
| | o'sish sur'ati, % da | 116,6 | 109,7 | 112,3 | 111,6 | 109,5 | 122,6 | 114,5 | 94,6 | 111,7 | 100 | 108,7 | 127,0 | 119,9 | 106,1 | x | x |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | **mlrd.so`m** | **3 848,0** | **5 519,4** | **6 852,3** | **7 869,8** | **9 521,9** | **11 263,2** | **12 578,7** | **16 378,5** | **19 541,2** | **21 632,7** | **25 814,6** | **30 712,7** | **35 093,6** | **41 665,1** | **44 505,3** | **36 135,8** |
| | o'sish sur'ati, % da | 102,7 | 104,1 | 104,0 | 103,3 | 104,0 | 103,7 | 101,6 | 97,1 | 99,2 | 100,6 | 102,1 | 104,0 | 103,8 | 105,4 | 101,8 | 104,5 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar | **mlrd.so`m** | **1 606,1** | **2 221,6** | **2 005,8** | **3 195,2** | **4 021,7** | **4 428,1** | **4 238,7** | **5 938,4** | **11 226,9** | **20 353,9** | **18 994,4** | **28 113,6** | **35 767,7** | **47 709,3** | **73 325,1** | **63 590,2** |
| | o'sish sur'ati, % da | 104,0 | 118,7 | 79,0 | 144,0 | 114,8 | 99,3 | 87,0 | 118,4 | 139,9 | 158,5 | 82,8 | 120,3 | 110,7 | 121,1 | 139,2 | 110,2 |
| Qurilish ishlari | **mlrd.so`m** | **509,9** | **684,2** | **907,1** | **1 151,7** | **1 330,9** | **1 562,0** | **1 646,3** | **1 825,4** | **3 006,7** | **5 594,1** | **6 930,6** | **9 401,2** | **12 237,4** | **14 339,0** | **29 331,4** | **25 228,7** |
| | o'sish sur'ati, % da | 126,6 | 119,5 | 120,5 | 114,0 | 104,0 | 109,4 | 100,2 | 100,3 | 131,1 | 155,8 | 105,2 | 115,3 | 108,6 | 106,3 | 134,1 | 112,6 |
| Chakana savdo tovar aylanmasi | **mlrd.so`m** | **2 306,3** | **3 137,7** | **4 060,0** | **4 907,5** | **6 103,0** | **7 663,3** | **9 223,0** | **11 149,5** | **14 101,0** | **17 420,0** | **21 073,4** | **13 802,5** | **25 250,0** | **30 872,1** | **38 550,4** | **29 528,5** |
| | o'sish sur'ati, % da | 107,3 | 123,1 | 113,3 | 109,3 | 113,2 | 118,9 | 110,9 | 103,0 | 106,6 | 107,2 | 106,0 | 116,8 | 109,8 | 110,9 | 111,6 | 109,9 |
| Xizmatlar, jami | **mlrd.so`m** | **2 253,3** | **2 749,2** | **3 473,3** | **4 428,7** | **5 529,5** | **6 445,7** | **8 112,9** | **9 347,4** | **11 292,9** | **14 568,4** | **16 677,3** | **21 197,4** | **25 919,7** | **45 199,2** | **56 518,1** | **48 839,8** |
| | o'sish sur'ati, % da | 126,7 | 113,8 | 115,6 | 118,4 | 117,2 | 113,2 | 116,9 | 105,1 | 107,0 | 113,4 | 103,4 | 117,8 | 112,0 | 111,7 | 113,2 | 114,8 |
| Tashqi savdo aylanmasi | **mln. AQSh. Dollor** | **2 901,5** | **3 655,7** | **2 952,4** | **3 318,3** | **3 864,2** | **3 094,8** | **3 019,8** | **3 207,6** | **3 861,3** | **4 746,9** | **4 604,2** | **5 311,3** | **5 584,5** | **5 783,0** | **5 896,6** | **5 061,0** |
| | o'sish sur'ati, % da | 155,5 | 126,0 | 80,8 | 112,4 | 116,5 | 80,1 | 97,6 | 106,2 | 120,4 | 122,9 | 97,0 | 115,4 | 105,1 | 103,6 | 102,0 | 118,9 |
| Eksport | **mln. AQSh. Dollor** | **1 756,0** | **2 244,5** | **1 736,8** | **1 662,4** | **1 915,6** | **1 637,1** | **1 103,1** | **1 406,0** | **1 535,4** | **1 781,6** | **1 786,1** | **2 011,1** | **2 042,4** | **1 885,1** | **1 918,4** | **1 527,7** |
| | o'sish sur'ati, % da | 166,0 | 127,8 | 77,4 | 95,7 | 115,2 | 85,5 | 67,4 | 127,5 | 109,2 | 116,0 | 100,3 | 112,6 | 101,6 | 92,3 | 101,8 | 105,1 |
| Import | **mln. AQSh. Dollor** | **1 145,5** | **1 411,2** | **1 215,6** | **1 655,9** | **1 948,6** | **1 457,7** | **1 916,8** | **1 801,6** | **2 325,9** | **2 965,3** | **2 818,1** | **3 300,2** | **3 542,1** | **3 897,9** | **3 978,2** | **3 533,3** |
| | o'sish sur'ati, % da | 141,7 | 123,2 | 86,1 | 136,2 | 117,7 | 74,8 | 131,5 | 94,0 | 129,1 | 127,5 | 95,0 | 117,1 | 107,3 | 110,0 | 102,1 | 126,1 |
| Saldo | **mln. AQSh. Dollor** | **610,5** | **833,3** | **521,2** | **6,5** | **-33,0** | **179,4** | **-813,7** | **-395,6** | **-790,4** | **-1 183,7** | **-1 032,0** | **-1 289,1** | **-1 499,8** | **-2 012,8** | **-2 059,7** | **-2 005,6** |
| | o'sish sur'ati, % da | 244,8 | 136,5 | 62,5 | 1,2 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x |

*dastlabki ma'lumotlar**